



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№12



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2025-yil, dekabr.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoirazimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Abdulkarimova Dinara Rustamxanovna

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Abdulkarimova Dinara Rustamkhanovna

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA DAVRIDA TIJORAT BANKLARI LIKVIDLILIK XAVFINI BOSHQARISHI.....	44
Baxromov Nodirjon Muxammadamin o'g'li	
TURIZM XIZMATLAR BOZORI ISTE'MOLCHILARINI SEGMENTLASH USULI ASOSIDA DIVERSIFIKATSIYA KONSEPSIYASINI ISHLAB CHIQISH.....	48
Maxmudova Aziza Pirmamatovna	
"INNOVATSION AGROTEKNOLOGIYALAR VA "YASHIL IQTISODIYOT" TAMOIYILLARI ASOSIDA G'ALLA YETISHTIRISH BARQARORLIGINI BAHOLASH.....	53
Turayeva Gulizahro	
АНАЛИЗ ЦЕНОБРАЗОВАНИЯ НА ЗЕРНОВЫЕ ПРОДУКТЫ ПО ДАННЫМ МАРКЕТИНГОВЫМ ИСЛЕДОВАНИЯМ (НА ПРИМЕРЕ НАМАНГАНСКОЙ ОБЛАСТИ).....	57
Баҳриддинов Жаҳонгирбек Равшанжон ўғли	
KICHIK BIZNES RIVOJINI TA'MINLASHDA BOZOR INFRATUZILMALARINING AHAMIYATI.....	62
G'aniyev Botir Baxtiyorovich, Zakirova Gulnora Mirzaliyevna	
KICHIK SANOAT ZONALARI FAOLIYATINI SAMARALI BOSHQARISH METODOLOGIYASI VA YO'LLARI.....	67
Shodmonqulov Kamoliddin Murodillaevich	
INNOVASION FAOLIYAT XARAJATLARINING BUXGALTERIYA HISOB VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH.....	73
Mustafoev Akbar Mustafo o'g'li	
MAHSULOT DIVERSIFIKATSIYASI VA LOGISTIKA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA EKSPORT POTENSIALINI OSHIRISH YO'LLARI.....	78
Maxkamov Ibrayim, Jo'raboyeva Shohida Kamoliddin qizi	
REKLAMA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARI ROLI.....	83
Abduxalilova Laylo To'xtasinovna, Raxmonqulova Shahrizoda	
SIRKULAR IQTISODIYOTDA YOPIQ SIKL NAZARIYASINING ROLI.....	87
Sodikov Zokir Rustamovich	
YASHIL TEKNOLOGIYALARNI JORIY ETISHDA MOLIVAVIY RAG'BATLAR VA ULARNING NATIJALARI.....	92
Axmadjonova Gulmira Xabibulla qizi	
MAMLAKAT IQTISODIYOTI RIVOJLANISHIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING ROLI.....	97
G'aniyev Baydulla Toshmurodovich	
АНАЛИЗ ПОДХОДОВ ЦЕНТРАЛЬНЫХ БАНКОВ К РЕГУЛИРОВАНИЮ ИННОВАЦИОННЫХ БАНКОВСКИХ ПРОДУКТОВ: СРАВНЕНИЕ УЗБЕКИСТАНА И МЕЖДУНАРОДНОЙ ПРАКТИКИ.....	101
Даулетиярова Шахло	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ РЫНКА ЦЕННЫХ БУМАГ УЗБЕКИСТАНА.....	109
Кадилова Хадича Тураевна	
XORIY MAMLAKATLARINING IQTISODIYOTNI UGLERODSIZLASHTIRISH STRATEGIYALARI: O'ZBEKISTON UCHUN TAKLIFLAR.....	115
D.X. Pulatov, F.E.Shamsiyev	
O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLIVASI: MUAMMOLAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	125
Sattorov Ixtiyor Ochilovich, Karimov Shohruh Yo'ldoshali o'g'li	
HISOB SIYOSATI TARKIBIY TUZILISHI MASALALARI.....	133
Botirova Raximaxon Abdujabbarovna	
QURILISHDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING MOLIVAVIY TAHLILI.....	136
Musayeva Shoirazimovna	



KICHIK SANOAT ZONALARINI RIVOJLANTIRISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH.....	144
Axmedov Oybek Turgunpulatovich	
O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI PORTFELI TAHLILI.....	149
Madraximov Ilxom Kamilovich	
FOYDA SOLIG'INING O'ZIGA XOS MUAMMOLI JIHATLARI.....	154
Zaripov Xusan Baxodirovich	
AGRAR SEKTORNI INNOVATSION MODERNIZATSIYA QILISHDA INVESTITSIYA OQIMLARINI BOSHQARISH MODELLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	159
Xamrayev Quvvat Iskandarovich	
OLIY TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDA MARKETING TADQIQODLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	163
Jalilov Jamshid G'anijonovich, Safarov Zavqiddin Zokir o'g'li	
MINTAQA SANOAT TARMOG'I RIVOJLANISHINING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI.....	168
Xayitboev Abror Quvondiqovich	
РОЛЬ СМЕШАННОГО ФИНАНСИРОВАНИЯ (BLENDED FINANCE) В ПОВЫШЕНИИ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ КОММУНАЛЬНЫХ УСЛУГ: УРОКИ РАЗВИВАЮЩИХСЯ СТРАН.....	174
Гулмаматова Дурдона Шерали кизи	
KORXONALARDA STRATEGIK BOSHQARUV.....	180
Musayeva Dilnoza Dilshatovna	
BANK TIZIMIDA MARKETING AHAMIYATI VA BANK MARKETINGI.....	184
Usubjonov Zaxriddin Vasliddin o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN XORJIY KREDIT MABLAG'LARINI JALB KILISH HUQUQIY JIHATLARI.....	189
Qulliyev Anvar Zayniddinovich	
TIJORAT BANKLARINI TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA CHAKANA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	194
Alimov Umid O'ktambayevich	
MAHSULOTLARNING RAQAMLI PASPORTI TIZIMINI JORIY ETISH OMILLARI VA TO'SIQLARI.....	200
Avloqulova Sadoqat Sobirjon qizi	
KORXONALARDA FOYDA VA ZARARLARNI TAHLIL QILISHDA INNOVATSION METODLAR AHAMIYATI.....	207
Ernazarov Ortiq Eshnazarovich, Farog'at Xo'jabekova	
ВЛИЯНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА ЭКОНОМИЧЕСКОЕ БЛАГОСОСТОЯНИЕ, А ТАКЖЕ НОВЫЕ МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ ДОХОДОВ НАСЕЛЕНИЯ.....	212
Останов Эгамберди	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA INNOVASION TEXNOLOGIYALARNI INTEGRATSIYALASH: MOHIYATI VA RIVOJLANISH IMKONIYATLARI.....	218
Xakimova Xulkar Xamidovna	
QORAQALPOG'ISTON VA XORAZM OZIQ-OVQAT SANOATINING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI HAMDA UNI YANADA RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	224
Tleuov Niyetulla Raxmanovich	
OILAVIY KORXONALARNING IQTISODIY TIZIMDAGI O'RNI.....	230
Shadiyeva Gulnora Mardiyevna, Rustamova Zarina Rustamovna	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA O'ZBEKISTON OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MARKETING FAOLIYATINI MODELLASHTIRISH VA BOSHQARISH MEXANIZMLARI.....	234
Sadikov Shoxrux Shuxratovich	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASI KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHDA RAQAMLI XIZMATLARNING AHAMIYATI.....	238
Asenbaeva Aydaygul Edenbaevna	
BARQARORLIK VA YASHIL MENEJMENT: ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLAR VA AMALIY AHAMIYATI.....	242
Djalilova Dilbar Abdikarim qizi	



HUDUDLARNING IQTISODIY SALOHİYATINI INNAVATSION-INVESTITSION BOSHQARISH STRATEGIYASI VA MEXANIZMI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)	247
Maqsudova Malohatxon Maqsudovna, Yaxshimuratov Maqsadbek Narimon o'g'li	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BYUDJETINI 2026-YILGI SOLIQ SIYOSATINING TAHLILI VA XALQARO SOLISHTIRMA YONDASHUVI	251
Abdullayev Zafarbek Safibullayevich	
O'ZBEKISTON MINTAQALARIDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI	256
Mamataliyeva Dilnoza Raxmonovna	
TRANSFORMATSIYALASHUV SHAROITIDA INVESTITSİYALAR SHAKLLANISHI VA ULARNI SAMARALI BOSHQARISH YO'NALISHLARI	259
To'rayev Jasurali To'rayevich	
O'ZBEKISTONDA SAVDO TASHKILOTLARINING FAOLIYATI VA RIVOJLANISH HOLATI	264
B. Sulaymonov	
NAMANGAN VILOYATIDA "YASHIL IQTISODIYOT" MODELIGA O'TISH JARAYONIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING IQTISODIY FAOLLIGI	270
Xonto'rayev Obbosxon Kamolxon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA "YASHIL" IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	274
Xoshimov Pazliddin Zuxurovich	
KICHIK BIZNES ORQALI ISH O'RINLARINI YARATISH STRATEGIYALARI: NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA	278
Ergasheva Nigora Abdigapparovna	
MAMLAKATIMIZDA QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INING IJTIMOIIY-IQTISODIY AHAMIYATI	283
Quryozov Sardorbek Sharifboevich	
РАЗРАБОТКА И ПРИОРИТИЗАЦИЯ КЛЮЧЕВЫХ ИНДИКАТОРОВ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЛЯ ОБЩЕНАЦИОНАЛЬНОЙ ПАНЕЛИ МОНИТОРИНГА ДЕЯТЕЛЬНОСТИ БОЛЬНИЦ: ЭКСПЕРТНАЯ ОЦЕНКА СО СТОРОНЫ РУКОВОДИТЕЛЕЙ МЕДУЧРЕЖДЕНИЙ	290
Шухратов Мамуржон Шухрат угли	
MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYAT ORGANLARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA BOSHQARISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR	297
Nurmurodov Zafarjon Nurmurod o'g'li	
BANK TIZIMINING BARQAROR MOLIVAVIY RIVOJLANISHINI TA'MINLASH VOSITALARI	303
Sadikov Iskandar Gayratovich	
ЗЕЛЕНОЕ ФИНАНСИРОВАНИЕ В ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА	308
Халиков С. Х.	
HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA KICHIK BIZNESNI ROLI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH CHORALARI	313
Ergashev Jamshid Jamoliddinovich	
ИСТОРИЧЕСКИЙ ПРОЦЕСС СТАНОВЛЕНИЯ ФАРМАЦЕВТИЧЕСКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ	317
Мажидова Фарангиз Фуркатзода	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDAGI TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	321
Isakov Oybek Jamoliddinovich	
NORASMIY KOOPERATSIYA MUNOSABATLARINING FERMER XO'JALIKLARI YETISHTIRGAN MAHSULOT MIQDORIGA TA'SIRINI BAHOLASH	325
Ismoilov Azamat	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA FOIZ RISKINI BOSHQARISH AMALIYOTI	332
Seitnazarov Daniyar Baxadirovich	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA SUT VA SUT MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLOVCHI KORXONALAR FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH	341
Normuradov Nurbek Sunatilloevich	
"AYOL RAHBARLAR: RAHBARLIK SALOHİYATI VA ISH JOYIDA TENGLIK" FRANSIYA DAVLATI TAJRIBASI ASOSIDA	346
Abduraxmonova Feruzabonu	



QISHLOQ XO'JALIGIDAGI KLASSTERLARNING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH.....	352
Dildora Yuldasheva	
TIJORAT BANKLARINING DEPOZIT BAZASINING YETARLILIGINI TA'MINLASH YO'LLARI	359
I.J. Isakov	
OLIY TA'LIM SIFATINI OSHIRISH VA IQTISODIY DIAGNOSTIKA O'TKAZISHNING XORIJ TAJRIBASI	363
Xo'jaxonov Ma'rufxon Xamidxonovich, Axmedov Oybek Turg'unpulatovich	
INKLYUZIV TA'LIMNI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI YECHISH YO'LLARI.....	369
Egamberdiyeva Dilorom Botir qizi, Pulatova Moxira Baxtiyorovna	
"KREATIV IQTISODIYOT" HAMDA "TURIZM" TUSHUNCHALARINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	374
Abdurasulov Shovqiddin Erkin o'g'li	
THE STRATEGIC ROLE OF THE INDUSTRIAL SECTOR IN THE NATIONAL ECONOMY AND DEVELOPMENT FACTORS.....	380
Rakhimov Bakhromjon Ibroximovich	
INVESTITSIYALARNI MOLIYALASHTIRISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI.....	386
Ismailov Dilshod Anvarjonovich	
GLOBAL INCOME INEQUALITY IN 2024: CAUSES, PATTERNS, AND CONSEQUENCES.....	393
Ilhomjonov Jaxongir Alisher o'g'li	
ТОРГОВЫЕ ОТНОШЕНИЯ В СВОБОДНО ЭКОНОМИЧЕСКИХ ЗОНАХ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ	401
Шарифходжаев Шавкат Окилович, Ачилова Ширин Шавкат кизи	
O'ZBEKISTON KON-METALLURGIYA SANOATI: RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA HOZIRGI HOLATI	407
Ergashov Botirjon Ergashovich	
PENSIYA JAMG'ARMASIDA DAVLAT BUDJETI TRANSFERTLARI ULUSHI HAMDA UNING XORIJ TAJRIBASI	415
Sherjonov Doniyor Saparbayevich	
O'ZBEKISTON SANOAT KORXONALARINI QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORIDAN FOYDALANIB MOLIYALASHTIRISHNING HOZIRGI HOLATI VA MUAMMOLARI.....	419
Igitov Jurabek Kuzibekovich	
QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I BO'YICHA FIRIBGARLIKLAR: MEXANIZMLARI, SABABLARI VA ULARNI OLDINI OLISH YO'LLARI.....	425
Eshkarayev Bobir Chariyevich	
TOG' VA TOG'OLDI HUDUDLARIDA QISHLOQ XO'JALIGINI DIVERSIFIKATSIYA QILISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI VA IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	431
Abdulxayeva Gulshan Maxmudovna	
TURIZM SOHASINING IJTIMOIIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI (SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA).....	435
Xalimov Shaxboz Xalimovich	
SANOATDA IQTISODIY MOLIYAVIY HISSOBOTLAR XALQARO STANDARTLARINI RAQOBATBARDOSH KORPORATIV STRATEGIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA QO'LLASH.....	442
Turaboev Ibroxim Ismoil o'g'li	
ФОНДИРОВАНИЕ И СТРАХОВАНИЕ В СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫМИ РИСКАМИ АПК: СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ И МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ	447
Дурманов Акмал Шаймарданович	
PAHTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARI RIVOJLANISHINING STATISTIK KO'RSATKICHLARI TAHLILI	456
Atajanova Guli Maxsudbekovna	
JAHON MOLIYAVIY BOZORLARI BARQARORLIGIGA GLOBAL IQTISODIY INQIROZLAR VA GEOSIYOSIY OMILLARNING TA'SIRI HAMDA ULARNI BOSHQARISH STRATEGIYALARI	462
Abdurazakova Nargiza Rixsibayevna	



JAHON MOLIYAVIY BOZORLARI BARQARORLIGIGA GLOBAL IQTISODIY INQIROZLAR VA GEOSIYOSIY OMILLARNING TA'SIRI HAMDA ULARNI BOSHQARISH STRATEGIYALARI

Abdurazakova Nargiza Rixsibayevna

Alfraganus universiteti Moliya kafedrasi dotsenti
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

E-mail: n.abdurazakova@afu.uz

ORCID: [0009-0001-9887-611X](https://orcid.org/0009-0001-9887-611X)

Annotatsiya. Jahon moliyaviy bozorlari zamonaviy global iqtisodiy tizimning ajralmas qismi bo'lib, ularning barqarorligi xalqaro iqtisodiy o'sish, investitsion muhit va davlatlararo moliyaviy hamkorlikning asosiy omillaridan biridir. So'nggi yillarda kuzatilgan global iqtisodiy inqirozlar, pandemiya oqibatlari, raqamli texnologiyalar ta'siri hamda geosiyosiy tangliklar moliya bozorlariga sezilarli bosim ko'rsatmoqda. Ushbu tadqiqotning maqsadi jahon moliyaviy bozorlari barqarorligiga ta'sir etuvchi asosiy global risk omillarini, xususan iqtisodiy inqirozlar va geosiyosiy beqarorlikning rolini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni boshqarish bo'yicha strategik yondashuvlarni ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot davomida xalqaro moliya institutlari ma'lumotlari, ekspert tahlillari va statistik ko'rsatkichlar asosida jahon bozorlarida likvidlik muammolari, investitsiya oqimlaridagi o'zgarishlar va valyuta risklarining kuchayishi o'rganildi. Shuningdek, barqarorlikni ta'minlashda davlatlar darajasida qabul qilinayotgan moliyaviy siyosatlar va xalqaro hamkorlik instrumentlari tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: jahon moliyaviy bozorlari, global iqtisodiy inqiroz, geosiyosiy risklar, investitsiya oqimi, valyuta barqarorligi, moliyaviy integratsiya, risklarni boshqarish, institutsional islohotlar, moliyaviy siyosat, xalqaro hamkorlik.

Abstract. The global financial markets constitute an integral part of the modern economic system, with their stability serving as a key factor for international economic growth, investment flows, and financial cooperation among states. In recent years, global economic crises, the consequences of the pandemic, the influence of digital technologies, and geopolitical tensions have exerted substantial pressure on financial markets. The purpose of this research is to analyze major global risk factors affecting the stability of financial markets, particularly the impact of economic crises and geopolitical instability, to identify existing challenges, and to propose strategic approaches for effective risk management. Using data from international financial institutions, expert analyses, and statistical indicators, the study examines liquidity constraints, fluctuations in investment flows, and the intensification of currency risks in global markets. Furthermore, the research evaluates national financial policies and international cooperation mechanisms aimed at ensuring financial stability.

Key words: global financial markets, global economic crisis, geopolitical risks, investment flow, currency stability, financial integration, risk management, institutional reforms, financial policy, international cooperation.

Аннотация. Мировые финансовые рынки являются неотъемлемой частью современной глобальной экономической системы, и их стабильность рассматривается как важнейший фактор международного экономического роста, инвестиционной активности и финансового сотрудничества между государствами. В последние годы глобальные экономические кризисы, последствия пандемии, развитие цифровых технологий, а также геополитическая напряжённость оказывают значительное давление на финансовые рынки. Цель данного исследования – проанализировать ключевые глобальные риски, влияющие на стабильность мировых финансовых рынков, в особенности роль экономических кризисов и геополитической нестабильности, выявить существующие проблемы



и предложить стратегические подходы к их управлению. На основе данных международных финансовых организаций, экспертных оценок и статистических показателей исследованы проблемы ликвидности, изменения инвестиционных потоков и усиление валютных рисков. Кроме того, рассмотрены меры финансовой политики и инструменты международного сотрудничества, направленные на обеспечение стабильности финансовых рынков.

Ключевые слова: мировые финансовые рынки, глобальный экономический кризис, геополитические риски, инвестиционные потоки, валютная стабильность, финансовая интеграция, управление рисками, институциональные реформы, финансовая политика, международное сотрудничество.

KIRISH

Jahon moliyaviy bozorlari bugungi kunda chuqur integratsiyalashgan bo'lib, turli davlatlar iqtisodiyotlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tobora kuchayib bormoqda. Kapital harakati, valyuta operatsiyalari, tovar va xomashyo savdosining globallashuvi moliyaviy bozorlarning umumiy barqarorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, tizimning yuqori darajada integratsiyalashgani uni global jarayonlar, iqtisodiy sikllar va geosiyosiy omillarga nisbatan sezgirroq qiladi. So'nggi o'n yilliklarda yuzaga kelgan 2008-yil global moliyaviy inqirozi, COVID-19 pandemiyasining moliya bozorlariga ta'siri, yetakchi davlatlar o'rtasidagi savdo munosabatlaridagi o'zgarishlar hamda geosiyosiy vaziyatning murakkablashuvi jahon moliyaviy tizimining rivojlanish dinamikasiga o'z ta'sirini ko'rsatgan. Barqarorlik tushunchasi moliyaviy bozorlarning shok va xavflarga bardosh berish qobiliyatini anglatadi. Ushbu qobiliyatning susayishi bozorlarda likvidlikning kamayishi, investorlar ishonchining pasayishi, valyuta kurslarining keskin tebranishi va investitsion resurslarning teng taqsimlanmasligiga olib keladi. Global darajadagi iqtisodiy inqirozlar nafaqat rivojlangan davlatlarda, balki rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiy barqarorligiga ham bevosita ta'sir qiladi. Ayniqsa, energetika narxlari, xomashyo bozorlaridagi o'zgarishlar va geosiyosiy xavfsizlik bilan bog'liq omillar moliyaviy bozorlarning tebranuvchanligini kuchaytiradi.

Bugungi geosiyosiy jarayonlar, jumladan xalqaro sanksiyalar, mintaqaviy mojarolar va davlatlararo iqtisodiy raqobat investorlar xatti-harakatiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Moliya bozorlarida yuzaga kelayotgan beqarorlik global iqtisodiy tizim uchun uzoq muddatli xavf tug'diradi. Shu nuqtai nazardan, jahon moliyaviy bozorlarining barqarorligini ta'minlash bo'yicha ilmiy asoslangan boshqaruv mexanizmlari, xalqaro moliyaviy institutlar roli va davlatlararo iqtisodiy hamkorlikni kuchaytirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Mazkurtadqiqotdoirasidamoliyaviybarqarorlikkata'siretuvchiasosiyglobalomillartizimliravishdao'rganiladi. Shuningdek, inqiroz holatlarida bozorlarni qo'llab-quvvatlash strategiyalari, risklarni diversifikatsiyalash usullari, institutsional islohotlar va raqamli texnologiyalarning bozor shoklarini yumshatishdagi o'rni tahlil qilinadi. Olingan xulosalar kelgusida jahon moliyaviy tizimining barqaror va izchil rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalarni ilgari surishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Jahon moliyaviy bozorlari barqarorligi bo'yicha ilmiy adabiyotlarda global iqtisodiy inqirozlar, geosiyosiy omillar va xalqaro moliyaviy integratsiyaning o'zaro ta'siri keng yoritilgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, 2008-yil global moliyaviy inqirozi, COVID-19 pandemiyasi va energiya bozorlaridagi tebranishlar moliyaviy tizimning likvidlik darajasiga, investorlar ishonchiga va kapital oqimlariga sezilarli ta'sir ko'rsatgan (Reinhart & Rogoff, IMF). Geosiyosiy risklar – xalqaro sanksiyalar, savdo urushlari, mintaqaviy mojarolar – valyuta bozorlari beqarorligi va investitsion faollikning pasayishiga olib kelishi ilmiy manbalarda alohida ta'kidlanadi (World Bank, OECD). Shuningdek, Zamonaviy tadqiqotlarda raqamli texnologiyalar, fintech yechimlari va institutsional islohotlarning moliyaviy barqarorlikni ta'minlashdagi o'rni ham keng o'rganilgan. Xalqaro moliyaviy tashkilotlar hisobotlarida global risklarni boshqarishning asosiy yo'nalishlari sifatida makroprudensial siyosat, kapital bozorlarini chuqurlashtirish, risklarni diversifikatsiya qilish hamda davlatlararo iqtisodiy hamkorlikni kuchaytirish taklif etiladi. Umuman olganda, ilmiy adabiyotlar jahon moliyaviy bozorlari barqarorligini global iqtisodiy shoklar va geosiyosiy omillarga tezkor moslashuvchanlikni ta'minlovchi institutsional mexanizmlar bilan bog'liq holda talqin qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi jahon moliyaviy bozorlari barqarorligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni tizimli o'rganishga yo'naltirilgan bo'lib, kompleks yondashuv asosida amalga oshirildi. Avvalo, global moliyaviy tizimdagi dinamik jarayonlarni tahlil qilish uchun statistik ma'lumotlar, xalqaro moliya institutlari hisobotlari,



reyting agentliklari baholari hamda ilmiy manbalar o'rganildi. Xususan, Xalqaro Valyuta Jamg'armasi, Jahon banki, Bank for International Settlements, OECD va boshqa nufuzli tashkilotlar e'lon qilgan ma'lumotlar asos qilib olindi. Bu esa global miqyosdagi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, valyuta barqarorligi, investitsiya oqimlari va bozorlardagi likvidlik indikatorlarini chuqur tahlil qilish imkonini berdi.

Tadqiqotda qiyosiy tahlil usuli qo'llanib, turli mintaqalar va iqtisodiyotlar kesimida yuzaga kelgan global iqtisodiy inqirozlar oqibatlari o'rganildi. Shu bilan birga, geosiyosiy jarayonlarning moliyaviy bozorlar tebranuvchanligiga ta'sirini aniqlash maqsadida iqtisodiy xavf ko'rsatkichlari va siyosiy barqarorlik indeksleri bilan o'zaro bog'liqliklar statistik usullar orqali tahlil qilindi. Tadqiqotda risklarni baholashning zamonaviy modellari, jumladan Value-at-Risk, stress-testlash usuli, ssenariyli modellashtirish metodlari qo'llanildi.

Maqola doirasida strukturaviy-tuzilmaviy yondashuv ham asosiy metodlardan biri sifatida tanlandi. Bu yondashuv orqali moliyaviy barqarorlikka ta'sir qiluvchi institutsional omillar, tartibga solish mexanizmlari va xalqaro moliyaviy integratsiya darajasi baholandi. Moliya bozorlaridagi ishonch omillarining shakllanishi va investorlarga psixologik ta'sir ko'rsatadigan xatarlar ekspert baholash usulida o'rganildi.

Shuningdek, kontent tahlil usuli orqali ilmiy adabiyotlarda global moliyaviy inqirozlar sabablari, ularni bartaraf etish bo'yicha taklif qilingan strategiyalar, davlatlar tajribasi va raqamli moliya institutlarining ahamiyati xulosalashtirildi. Empirik natijalarni mustahkamlash maqsadida ilgor iqtisodiyotga ega davlatlar bilan rivojlanayotgan mamlakatlarning moliyaviy boshqaruv tajribasi solishtirilib, samarali strategiyalar tanlab olindi. Tadqiqot natijalari ilmiy asoslangan taklif va xulosalar ishlab chiqish uchun zamonaviy moliyaviy nazariya va analitik yondashuvlar bilan qo'llab-quvvatlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari global iqtisodiy inqirozlar va geosiyosiy jarayonlar jahon moliyaviy bozorlari barqarorligiga kompleks va ko'p yo'nalisli ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi. Avvalo, xalqaro moliya bozorlaridagi likvidlik darajasining o'zgarishi va investorlar kayfiyatidagi tebranishlar global kapital oqimlarining qayta taqsimlanishiga olib kelayotgani kuzatildi. Pandemiya davri misolida, xavfsiz aktivlarga bo'lgan talabning ortishi rivojlanayotgan mamlakatlarda investitsiya oqimlarining vaqtinchalik kamayishiga sabab bo'lgan. Valyuta kurslarining faollashgan o'zgaruvchanligi esa eksport-import jarayonlariga moslashuv mexanizmlarini kuchaytirish zaruratini ko'rsatdi.

Geosiyosiy omillar ta'sirida xalqaro iqtisodiy munosabatlarda yuzaga kelgan cheklovlar, savdo siyosatidagi o'zgarishlar va energetika bozoridagi beqarorlik jahon moliyaviy tizimining talab va taklif muvozanatini qayta shakllanishiga olib keldi. Mintaqaviy jarayonlar, jumladan Yaqin Sharqdagi siyosiy vaziyat ham global bozor narxlarining o'zgarish dinamikasini tezlashtirgan bo'lib, investorlarning riskni boshqarish strategiyalarini ehtiyotkorlik bilan tanlashlariga undadi. Natijada, moliyaviy instrumentlar bo'yicha risk mukofotlarining oshishi hamda investitsiya oqimlarining iqtisodiy barqarorlik darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarga yo'naltirilishi kuzatildi.

Tadqiqot shuningdek, moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda institutsional islohotlar va tartibga solish mexanizmlarining ahamiyatini tasdiqladi. Jahon moliya bozorlarida qo'llanilayotgan prudensial nazorat, makroprudensial siyosat va bank sektorining kapitallashuvini oshirish bo'yicha islohotlar iqtisodiy shoklar oqibatlarini yumshatishda muhim rol o'ynadi. Raqamli moliya xizmatlarining kengayishi esa moliyaviy inklyuziya darajasini oshirgani holda bozorlarning elastikligini kuchaytirdi.

Empirik tahlillar shuni ko'rsatdiki, barqaror moliyaviy tizim yaratish uchun risklarni diversifikatsiya qilish, investitsion muhitni yaxshilash, shuningdek xalqaro moliyaviy hamkorlikni kuchaytirish zarur. Natijalardan kelib chiqqan holda, moliyaviy siyosatni global xavflar sharoitida moslashtirish, stress-testlashni kuchaytirish, shaffoflik va prognozlash tizimlarini rivojlantirish iqtisodiy xavflarni boshqarishning asosiy yo'nalishtirish sifatida belgilandi. Shu bilan birga, davlatlararo axborot almashinuvi va moliyaviy tashkilotlar o'rtasida koordinatsiyani mustahkamlash global moliyaviy barqarorlikni qo'llab-quvvatlashga xizmat qilishi aniqlandi.

Tadqiqot davomida global iqtisodiy inqirozlar va geosiyosiy omillarning jahon moliyaviy bozorlari barqarorligiga ta'siri chuqur tahlil qilinarkan, ushbu jarayonlarning murakkabligi hamda o'zaro bog'liqligi yana bir bor tasdiqlandi. Moliya bozorlarining globallashtirish ularni bir tomondan o'sish imkoniyatlarini kengaytirsa, ikkinchi tomondan xavf va xatarlarning tezkor tarqalishiga zamin yaratmoqda. Shu sababli, bozorlardagi har bir shok hodisasi transchegaraviy oqibatlarni yuzaga keltiradi va turli mintaqalarda moliyaviy beqarorlikni kuchaytirishi mumkin.



1-jadval. Jahon moliyaviy bozorlari barqarorligiga ta'sir etuvchi global omillar va ularni boshqarish strategiyalari

Omillar guruhlari	Ta'sir holati	Barqarorlikka xavf darajasi	Tavsiya etilgan boshqaruv strategiyalari
Global iqtisodiy inqirozlar	Likvidlikning kamayishi, inflyatsiya bosimi, investitsiya oqimlarining qisqarishi	Yuqori	Stress-testlashni kuchaytirish, makroprudensial siyosat, rezervlarni diversifikatsiya qilish
Geosiyosiy tangliklar	Valyuta kurslarining tebranishi, kapitalning xavfsiz zonalarga oqimi	Yuqori	Xalqaro iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish, sanksiyalarga moslashuvchan siyosat
Energetika va xomashyo narxlari o'zgarishi	Tashqi qarzning oshishi, bozor tebranuvchanligining kuchayishi	O'rtacha–yuqori	Energetik diversifikatsiya, barqaror ta'minot zanjirlarini yaratish
Raqamli transformatsiya va fintech	Moliyaviy inklyuziya oshishi, biroq kiberxavf kuchayishi	O'rtacha	Kiberxavfsizlikni mustahkamlash, tartibga solishni takomillashtirish
Institutsional islohotlar darajasi	Investorlarda ishonchning pasayishi yoki ortishi	O'rtacha	Tartibga solish shaffofligini kuchaytirish, bank sektorini kapitalashtirish
Global savdo siyosati va logistik xatarlar	Yetkazib berish zanjirlarining uzilishi, narxlarning keskin o'sishi	O'rtacha-yuqori	Mintaqaviy integratsiya, muqobil savdo yo'nalishlarini rivojlantirish
Ekologik va ijtimoiy talablar (ESG)	Moliyalashtirishda cheklovlar, investitsiya yo'nalishlarining o'zgarishi	O'rtacha	Yashil obligatsiyalarni rivojlantirish, barqaror investitsiya siyosati
Kapital bozorlarining globallasuvi	Xatarlarning tez tarqalishi, tizimli risklarning ortishi	Yuqori	Xalqaro monitoring va ma'lumot almashish tizimini kuchaytirish

Geosiyosiy tangliklar, iqtisodiy sanksiyalar va global yetkazib berish zanjirlaridagi uzilishlar investorlarning xavfga bo'lgan munosabatini sezilarli darajada o'zgartirib, kapitalning xavfsiz aktivlarga yo'nalishini kuchaytiradi. Bu jarayon rivojlanayotgan davlatlar uchun qo'shimcha moliyaviy mas'uliyatlar va vazifalarni yuzaga keltirib, ularning iqtisodiy o'sish sur'atlariga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi. Xususan, valyuta kurslari barqarorligini ta'minlash, moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojni qondirish va tashqi qarz yukini optimal boshqarish kabi vazifalar yanada dolzarb bo'lib boradi.

Boshqa tomondan, global inqirozlar moliyaviy tizimlarda transformatsion o'zgarishlar uchun muhim turtki vazifasini bajarmoqda. Raqamli moliyaviy texnologiyalar, fintech xizmatlarining ommalashuvi va elektron to'lov tizimlarining kengayishi moliya bozorlarining moslashuvchanligini oshirib, xavflarni boshqarishning yangi mexanizmlarini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, raqamli xavfsizlik masalalari va kiberxavfsizlikka oid ehtiyot choralari ham izchil e'tibor talab qiladi.

Jahon moliyaviy tizimida institutsional barqarorlikning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Xalqaro Valyuta Jamg'armasi, Jahon banki, Yevropa Markaziy banki va boshqa xalqaro tuzilmalar tomonidan ilgari surilayotgan makroprudensial siyosat choralari bozor tebranishlarini yumshatishga yordam bermoqda. Shu bilan birga, global iqtisodiy manfaatlar farqlanishi hamda siyosiy omillar mavjud mexanizmlarni takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda xalqaro iqtisodiy hamkorlik, muvofiqlashtirilgan monitoring tizimi va tartibga solish jarayonlarining shaffofligi muhim o'rin tutadi.

Ekologik omillar va yashil iqtisodiyotga o'tish tendensiyalari ham moliya bozorlarining kelajakdagi rivojlanishida sezilarli ta'sirga ega. Barqaror moliyalashtirish, ESG-investitsiyalar (ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv tamoyillari) va "yashil" obligatsiyalar bozor raqobatbardoshligini oshirishi bilan birga, ijtimoiy mas'uliyatni mustahkamlaydi. Shunday qilib, jahon moliyaviy barqarorligining kelajagi risklarni samarali boshqarish bilan bir qatorda, iqtisodiy modelni barqarorlik tamoyillariga mos tarzda modernizatsiya qilish bilan chambarchas bog'liqdir.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tadqiqot natijalari global iqtisodiy inqirozlar va geosiyosiy omillarning jahon moliyaviy bozorlari barqarorligiga kuchli va ko'p qirrali ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Ushbu jarayonlar moliyaviy tizimning barcha tarkibiy qismlariga – kapital oqimlari, valyuta kurslari, investitsiya muhiti, bank sektorining funktsionalligi hamda xalqaro moliyaviy hamkorlikka bevosita ta'sir etadi. Bozorlarning yuqori darajada integratsiyalashgani sababli, har qanday iqtisodiy yoki geosiyosiy xavf tezkor ravishda boshqa mamlakatlarga ham tarqalib, global moliyaviy tizim barqarorligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun, avvalo, risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish, prudensial nazoratni kuchaytirish va stress-testlash amaliyotini yanada rivojlantirish zarur. Davlatlar moliyaviy tartibga solish mexanizmlarini shaffolashtirish, investorlar ishonchini mustahkamlash, bozor monitoringi va prognozlash tizimlarini raqamlashtirish orqali global xavflarga moslashuvchanlikni oshirishi lozim. Xalqaro moliyaviy tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlikni kengaytirish, axborot almashinuvi samaradorligini oshirish va mintaqaviy integratsiyani rag'batlantirish iqtisodiy beqarorlikning transchegaraviy ta'sirlarini kamaytirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, innovatsion moliyaviy texnologiyalarni qo'llash moliya bozorlarining kelajakdagi barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Fintech xizmatlari, raqamli to'lovlar va blokcheyn asosidagi tizimlar moliyaviy inklyuziyani kengaytirib, bozorlarning moslashuvchanligini oshiradi. Shu bilan birga, kiberxavfsizlikka oid xavflarga qarshi samarali himoya mexanizmlarini ishlab chiqish ham dolzarb vazifalardan biridir.

Kelajakda jahon moliyaviy bozorlari barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun iqtisodiy siyosat global xavflar sharoitida yanada moslashuvchan bo'lishi, iqtisodiy model esa barqarorlik tamoyillariga asoslangan holda modernizatsiya qilinishi zarur. Yashil iqtisodiyotga o'tishni qo'llab-quvvatlash, ESG-investitsiyalarni kengaytirish va moliyalashtirishda ijtimoiy mas'uliyatni kuchaytirish global iqtisodiy tizimning uzoq muddatli barqarorligini mustahkamlaydi. Demak, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash strategiyalari kompleks yondashuvga asoslanib, iqtisodiy, geosiyosiy va institutsional o'zgarishlarni inobatga olgan holda shakllanishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Xalqaro Valyuta Jamg'armasi. Global Financial Stability Report. Washington, DC, 2024.
2. Jahon Banki. Global Economic Prospects. Washington, DC, 2023.
3. Bank for International Settlements. Annual Economic Report. Basel, 2024.
4. Kushakova M.N., Akhmedov B.A., Kushakova M.S., & Umarova D.R. Economic Characteristics and Principles of the Formation of the Transport Cluster in the Tourism Sector in the Conditions of the Digital Economy. Sustainable Development of Transport, 107.
5. Akhmedov B. A. (2025). Implementing Artificial Intelligence and Virtual Learning Environments in Elementary Schools in Uzbekistan. Procedia Environmental Science, Engineering and Management, 12(1), 63-70.
6. Setiawan A., Andrian D., Dardjito H., Yuldashev A.A., Murlianti S., Khairas E.E., & Handoko L. (2023). The Impact of Indonesia's Decentralized Education on Vocational Skills and Economic Improvement of Students. Jurnal Pendidikan Vokasi, 13(3), 246-261.
7. Ikromov I. (2023). Actual Problems of Teaching Physical Culture at School. Science and Innovation, 2(B6) 14-19.
8. Khakimjanova K. (2023). The Laws of Speech Development of Preschool Children. Science and Innovation, 2(B3), 365-367.
9. OECD. Financial Markets and Globalization: Risk Analysis. Paris-2023.
10. Karimov A. Global moliyaviy inqirozlar tahlili va boshqaruv mexanizmlari. Toshkent: Iqtisodiyot, 2022.
11. Rustamov, M. Geosiyosiy beqarorlik va moliya bozorlari o'zgaruvchanligi. Toshkent: Fan, 2023.
12. Rakhmonova S. (2024). The Notion of Communicative Competence. Lingvospektr 1(1), 86-87.
13. Siddiqov B. Xalqaro investitsiya oqimlari va moliyaviy barqarorlik. Samarqand: SamISI nashriyoti 2024.
14. Nurmatova D. Moliya bozorlarida risklarni boshqarishning zamonaviy yondashuvlari. Buxoro: Innovatsiya 2022.
15. European Central Bank. Financial Stability Review. Frankfurt, 2024.
16. Davletov H. Raqamli moliyaviy texnologiyalar va moliyaviy inklyuziya masalalari. Toshkent: Iqtisodiy tadqiqotlar markazi. 2023.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>